

UDK 631.6:631.4/626

**QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARINI ETISHTIRISHDA TUPROQNI
EROZIYADAN HIMoyalab ISHLOV BERISHNING AHAMIYATI**

Qo‘ziyev Shaxzod Serobovich

“Umumtexnik fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Hayitov Bobur Komilovich

“Umumtexnik fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ro‘ziyev Elbek Rajabovich

“Umumtexnik fanlar” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tuproqqa ag‘darmasdan ishlov berishni afzalliklari tahlili keltirilgan. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi uni intensifikatsiyalashtirish hisoblanadi. Bu tuproq-iqlim sharoitiga mos holdagi texnologiya va texnik vositalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Tuproqni ekologik jihatdan himoya qilish asosan, unga ishlov berish texnologiyasi va texnik vositalariga bog‘liq.

Kalit so‘zlari: eroziya, plug, yumshatkich, chizell, tuproq, ag‘dargich.

Bugungi kunda, Respublikamizda lemex-ag‘dargichli pluglar bilan asosiy ishlov berish keng tarqagan. Ular shudgorlanadigan maydonlarni qariyb 90%da keng qo‘llaniladi. Ag‘dargichli ishlov berishda energiya sarfining yuqoriligi, namligi kam va shamol eroziyasiga moyil tuproqlarda uni qo‘llashning maqsadga muvofiq emasligi, «plug toponi» hosil bo‘lishi kabi kamchiliklarni ko‘rsatish mumkin.

Kam energiya sarflab, tuproqni eroziyadan himoya qiladigan texnologiyalarni qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega: tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoyalash; ishlov berishdagi energiya sarfini kamaytirish; namlikni to‘plash va saqlashni yaxshilash; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish [1].

1.1. Tuproqqa himoyalab ishlov berishning hozirgi ahvoli

Tuproqqa ag‘darmasdan ishlov berish tuproqni saqlovchi dehqonchilik tizimi hisoblanib, bu usulda passiv turdag‘i ish organlari(yassi keskichlar, yumshatkich va o‘qyoysimon tishlar) va tuproq reaksiyasidan harakat oluvchi passiv uzatmali ish

organlari(g‘altakmolalar, diskli va rotatsion boronalar)ga ega bo‘lgan mashinalar va qurollar ishlatiladi. Ular asosan kesak hosil bo‘lishiga moyil bo‘lgan og‘ir tuproqlarda qo‘llaniladi.

Tuproqqa ag‘darmasdan ishlov berish texnologiyasi qo‘llanilganda arning unumdar qatlami dala ustida qoldiriladi. Natijada tuproq ustki qatlamidagi o‘simlik qoldiqlari tez va qisqa vaqt ichida minerallashib, yangi o‘simliklar uchun ozuqa bo‘lib xizmat qiladi [30].

Bugungi kunda, Respublikamizda lemex-ag‘dargichli pluglar bilan asosiy ishlov berish keng tarqalgan. Ular shudgorlanadigan maydonlarni qariyb 90%da keng qo‘llaniladi. Ag‘dargichli ishlov berishda energiya sarfining yuqoriligi, namligi kam va shamol eroziyasiga moyil tuproqlarda uni qo‘llashning maqsadga muvofiq emasligi, «plug tovoni» hosil bo‘lishi kabi kamchiliklarni ko‘rsatish mumkin.

Kam energiya sarflab, tuproqni eroziyadan himoya qiladigan texnologiyalarni qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega: tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoyalash; ishlov berishdagi energiya sarfini kamaytirish; namlikni to‘plash va saqlashni yaxshilash; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.

$$K_{uz} = \frac{P_{uz} - G}{F}, \quad (2.1)$$

bu erdaR_{uz} - tuproqni erdan uzishga sarflangan kuch, N;

G - quti ichidagi tuproq og‘irligi, N;

F - uzib olingan maydon yuzasi, m².

Siljishdagi tuproqning qarshiligi esa quyidagi formula orqali topiladi

$$K_{sil} = \frac{P_{sil}}{F}, \quad (2.2)$$

bu erdaR_{sil} - tuproqni siljitisiga sarflangan kuch, N;

F - siljitelgan maydon yuzasi, m².

Tuproqning buralishga qarshiligi quyidagi formula orqali topiladi


$$K_{byp} = \frac{P_{byp} - P_u}{F}$$

Och tusli bo‘z tuproqlarning turli deformatsiya qarshiliklari 1.1 jadval

| Tuproq qatlamlari, sm | Namlik, % | Uzilish, kPa | Siljish, kPa | Buralish, kPa |
|-----------------------|--------------|--------------|-----------------|---------------|
| 0...5 | | 39,2 | 71,3 | 63,4 |
| 5...10 | 8,7 | 62,3 | 79,4 | 72,8 |
| 10...15 | | 75,4 | 93,1 | 79,8 |
| 15...20 | 10,4 | 78,3 | 96,4 | 81,2 |
| 20...25 | | 77,9 | 91,5 | 82,5 |
| 25...30 | 12,2 | 70,2 | 89,1 | 83,8 |
| 30...35 | | 73,3 | 87,3 | 81,2 |
| 40 | 12,0 | 78,8 | 94,2 | 82,7 |

Eroziyaga qarshi tuproqqa ishlov berishning eng samarali usuli bu ag‘dargichsiz ishlov berishdir. 8...10 yoki 10...12 sm chuqurlikda kultivator-tekis keskichlar bilan ishlov berish; 10...12 yoki 12...14 sm chuqurlikda kultivator-tekis keskichlar bilan ishlov berish; 6...8 sm chuqurlikda shtangali kultivatorlar bilan ishlov berish; 12...14 yoki 14...16 sm chuqurlikda kultivator-tekis keskichlar bilan ishlov berish; 25...27 sm chuqurlikda chuqur yumshatkichlar bilan ishlov berish.

Ammo, bunday ag‘dargichsiz korpus bilan ishlov berilganda o‘simlik qoldiqlari 50-75% ko‘miladi, bu esa ishlov berishning himoya qilish rolini kamaytiradi. O‘simlik qoldiqlarini sezilarli darajada shikastlanishi korpus va to‘sinq old qismining qamrash kengligiga bog‘liq bo‘lib, agar korpusning qamrash kengligi 35 sm bo‘lsa, uning qamrash kengligi korpusning qamrash kengligini beshdan bir qismini tashkil qiladi.




1-rasm. Chizelli ish organlar turi:

1 – tutqich; 2 – pichoq; 3 – dala taxtasi; 4 – boshmoq; 5 – iskana.

Chzelli ishchi organlar tuproqqa asosiy ishlov berish uchun mo‘ljallangan. Ular tuproqni yaxshi yumshatadi. Chizelli ish organlarning qo‘yidagi turlari qo‘llaniladi: tik tutqichli; qiya tutqichli, kam tortishga qarshilikka ega bo‘lib, tuproqni yaxshi yumshatadi; egri tutqichli afzalliklari qiya tutqichlikniki kabi bo‘lib, egat tubidagi o‘rkachlarni tuliq buzadi.


Natijada, tuproq agregatlari aralashmasdan va dala yuzasiga chiqmasdan palaxsa yumshatiladi. Ishlov berilgan dala yuzasida 90% gacha o‘simlik qoldiqlari qoladi, tuproqqa ko‘p sonli yoriqlar va siniqlar hosil bo‘lishi tufayli yuzadagi namni yo‘qotish ag‘dargichli shudgorlashga nisbatan 85-90% ga kamayadi.

Chizelli ishlov berishda erishilgan yutuqlarning eng ahamiyatlisi bu ag‘dargichli-ag‘dargichsiz ishlov berish ish organlarini yaratilishidir (1.4 –rasm).



2 - rasm. Ag‘dargichli qiya tutqichli ag‘dargichsiz ish organi

Ushbu ish organi bir qator afzalliklarga ega [26]. Bu ish organda ag‘dargich tutqichning yuqori qismiga berkitiladi. Ag‘dargichning ishlov berish chiqurligi 15 sm. Iskana qiya tutqichli ishchi organidagi kabi o‘z funksiyasini bajaradi. Ag‘dargich yuqori qatlamni ag‘daradi, natijada begona o‘tlar va o‘simlik qoldiqlari keltirilgan chiqurlikka ko‘miladi. Natijada qo‘sishimcha yumshatilgan 0-15 qatlamda mikrobiologik jarayonlar jadal kechadi, bu esa yuqori qatlamda gumus hosil bo‘lishi va organik moddalarni to‘planishiga olib keladi [2, 3,5]



3-rasm. O‘rkachli-pog‘onasimon plug bilan ishlov berilgan egatning ko‘ndalang profile

Palaxsa to‘liq ag‘darilmaganda palaxsaning og‘irlik markazini ko‘ndalang yo‘nalishda (yon tomonga) siljitib va siljitmasdan ag‘darish qo‘sib bajariladi. Bu texnologiya vintsimon korpus va zaplujnik bilan quyidagi usulda amalga oshiriladi.

XULOSA

Tuproqqa ishlov berishning takomillashgan tizimini ishlab chiqish va joriy qilish, ishlov berishni texnologik va texnik ta’minlash hisobiga tuproqni eroziyadan himoyalash shudgorlashning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, enargiya va material sig‘imini kamaytirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirdari to‘g‘risida Prezident farmoni. T. 2007 y. 29 oktyabr.
2. Mamatov F.M., Mirzaev B. Teoriya rezaniya lezviem i raschet ploskovraçatelnyx nojey diskovogo tipa. – Tashkent: Fan, 2013. – 105 s.
4. Mirzajonov K.M va boshq. —Eroziyaga uchragan tuproqlarning unumdotligini oshirish. —O‘zbekiston. 1976 y.
5. Zaslovskiy M.N —Eroziya pochv. —Moskva. —Mysl. 1979 g.
6. Mamatov F.M —Qishloq xo‘jaligi mashinalari. Voris-nashrièt. Toshkent 2014 y. 388 b.
7. Mamatov F.M., Mirzaev B., Buranova SH. Tuproqqa ishlov berish texnologiyalari va texnik vositalarining rivojlanishini asosiy yo‘nalishlari. // Respublika ilmiy-amaliy anjumanı materiallari to‘plami. —Qarshi, 2013.